

THE REFLECTION OF UNIVERSAL ASPECTS IN POEMS DEVOTED TO MOTHERS

Roza Khabibulleva Mukhammadayubovna

BSU, Foreign Languages Faculty
English literature department

Abstract: In this article, the study of works dedicated to the Mother character in Uzbek literature is mainly based on prose. In this sense, the study of the depiction of the image of the mother of the Uzbek people in fiction, the study of the peculiarities of this image, the analysis of the poet's skill in artistic coverage of this image in revealing the national qualities of our fiction has a specific significance.

Keywords: Poetry, creativity, literature, image, art, appreciation, tone, description, expression

KIRISH. Ona siymosi dunyodagi barcha xalqlar uchun muqaddas va mo'tabardir. Ularni birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor, albatta. Lekin, ayni vaqtda, har bir xalqqa, millatga mansub ona siymosi o'z fe'l-atvori, tabiati, ichki va tashqi dunyosi, hatto, portreti bilan muayyan darajada farqlanib turadi. Ona butun bir xalq, butun bir millatning o'ziga xosligi, shakllanishi, namoyon bo'lishida alohida o'rin tutuvchi siymodir va ayni vaqtda, har bir inson kabi jamiyat, muhit, sharoitning vakili sifatida o'ziga xos bir individumdur. «Odamning qalbida qanday olijanob tuyg'ular mavjud bo'lsa, ularning barchasi avvalo onadandir».[1]

Shu ma'noda, o'zbek xalqiga mansub ona siymosining badiiy adabiyotda tasvirlanishini, bu tasvirdagi o'ziga xosliklarni o'rganish, bu obrazni badiiy yoritishdagi shoir mahoratini tahlil etish badiiy adabiyotimizning milliy fazilatlarini ochishda o'zbek xalqidagi milliylikni ko'rsatishda o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, zamonaviy o'zbek she'riyatida Ona mavzusidagi she'rlar yaxlit tizimni tashkil etadi. Bu she'rlar badiiy-kompozitsion jihatdan rang-barang xususiyatlarga ega.

Ushbu maqolda o'zbek adabiyotshunosligida mo'tabar zot Onaga bag'ishlangan asarlarni o'rganish asosan nasriy asarlar misolida kuzatiladi. Bu sohadagi muhim va yangi taqiqotlardan biri O.Duysenbayevning "O'tkir Hoshimov ijodida Ona obrazi" deb nomlangan nomzodlik dissertastiyasidir.[2] Unda adibning

hikoya, qissa, romanlarida yaratilgan Ona obrazining estetik mohiyati, tadrijiy takomili keng ko'lamda tadqiq etilgan. She'riyatimizda yaratilgan Ona obrazi tadqiqiga bag'ishlangan maxsus tadqiqot hozircha bajarilmagan. Biroq she'riyat va badiiy obraz tadqiqi bilan aloqador ishlarda bu masalaga munosabat bildirib o'tilgan. Jumladan, o'zbek poemalari tabiatini o'rgangan taniqli she'rshunos N.Rahimjonovning "O'zbek poemasi" nomli tadqiqotida poemalarda yaratilgan Ona obraziga xos jihatlar tadqiq etilgan.[3] Shuningdek, taniqli yozuvchi A.Jo'rayev Ona haqidagi she'rlarni bir joyga jamlab, "Onajon" to'plamini (2013) nashr ettirdi. Unda adib tomonidan "Ona sayyorasi" deb nomlangan kattagina so'zboshi xarakteridagi maqola o'rin olgan.[4] Mavjud ishlarga tayangan holda ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida yaratilgan Ona mavzusidagi she'rlarni o'rganishga harakat qildik.

Umumbashriy va milliy qadriyatlarimiz bisyor. Ona ham umumbashariy, ham milliy qadriyat sifatida ulug'lanadi. Dunyoda qancha millat bo'lsa uning shuncha onasi bor. Har bir millat farzandi o'z onasini yaxshi ko'rmasligi, qadrlamasligi va hurmat qilmasligi aslo mumkin emas. Ona Afrikada ham, Amerika va Hindistonda ham, Osiyo, Evropa va Antarktidada ham ona. Ona ulug' va bebaho zot sifatida har joyda, har mamlakat va har millatda beqiyos darajada e'zozlanadi. Rang-ro'yidan, urf-odatidan, turmush tarzidan qat'iy nazar, ona ulug' zotligicha qoladi. Dunyo xalqlari ichida onalarni sevish, qadrlash va ulug'lash borasida o'zbeklar hamisha oldingi saflarda borayotgani, boshqa millatlarga o'rnak bo'layotgani kishiga faxr va iftixor bag'ishlaydi. Bu bebaho fazilatimiz bilan har qancha g'ururlansak, faxrlansak arziydi. Bizday onani boshiga ko'taradigan va onaday ulug' zotning hurmatini joyiga qo'yadigan millat kam topilsa kerak.

Millatning ulug'ligi onaning ulug'ligi bilan belgilanadi. Onaga bo'lgan ehtirom millatga bo'lgan ehtiromdir. Millat komilligi ona komilligi bilan o'lchanadi.

Zero, O'tkir Hoshimov "Ayol" nomli publististik maqolasida Onaning yaratuvchanlik qobiliyatini kurrai zaminga qiyoslab yozgan obrazli fikrlari bilan buni dalillaydi: "Ona mehrini to'sadigan chegara yo'q. Ehtimol allaning qudrati mana shundadir. Ehtimol, Ona yurt, Ona tili, Ona-Vatan degan iboralar mana shundan kelib chiqqandir. Ehtimol, Ona-Yer degan ibora shundan kelib chiqqandir. Shuning uchun ham men Yer kurrasini ayolga o'xshataman».[5]

Asosiy qism. Adabiyotshunos O.Duysenbayevning yozishicha, O'tkir Hoshimov ijodida "Dunyoning ishlari" qissasi adibning ona obrazini yaratishdagi kulminatsion nuqtasi hisoblanadi.[6] Zero, mazkur qissa o'zbek kitobxonlari va adabiyotshunoslarigina emas, xorij kitobshinavandalari qalbini ham zabt etdi. Ustoz adib Said Ahmad "Ijod va jasorat" maqolasida qissa haqida shunday e'tirof etdi: "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi".[7]

Adabiyotshunos A.Rasulov shunday deb yozadi: “Dunyoning ishlari” poetikasini alohida sinchkovlik bilan o’rganish zarur. Asarda yozuvchi mahorati, topqirligi, qissa janri tabiatiga kiritgan yangiligi, eng kichik personaj mohiyatini ham bir turtki, bir imo, harakat bilan ochib yuborganligi aniq ko’rinadi. Bir qarasangiz, “Dunyoning ishlari” sentemental asarday tuyuladi. Aslida, unda his-tuyg’u serob-u, ammo zinhor sentemental asar emas”. [8] Mazkur qissaning ijobiy, gumanizm targ’ibotchisi sifatidagi xislat va fazilatlari haqida adabiyotshunos olimlarimizdan M.Qo’shjonov, O.Sharafiddinovlar alohida taqriz va maqolalar e’lon qilishdi. Qissa kompozitsiyasiga e’tibor bersak, asar muallif ta’kidlaganidek, hajm jihatdan xilma-xil, katta, kichik, o’rtacha shakldagi mustaqil, jami 33 hikoyadan tashkil topgan. Adib asarga yozgan muqaddimasida shunday deydi: “Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun aziz odam – Onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o’z ko’zim bilan ko’rganman. Faqat ba’zilarining ismi o’zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan Onamga bog’langan”. [9] Demak, bu qissa yaratilish uslubi jihatidan Abdulla Qahhorning “O’tmishdan ertaklar”, Nazir Safarovning “Navro’z” avtobiografik xarakterdagi asarlariga o’xshab ketadi. Qissada adibning onasi Poshsha xola obraziga hayotiy asos bo’lib, uning atrofiga chamasi 20 ga yaqin onalar obrazi bog’lanadi. Lekin barcha voqealar va onalar siymosi Poshsha xola obrazi bilan bir nuqtada kesishadi.

Said Ahmad bu haqda yozadi: “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo’shiqday o’qiladi. Uni o’qib turib, o’z onalarimizni o’ylab ketamiz. Shu mushfiq, shst jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo’lmas qarzarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir savol, bir andisha ko’z oldimizda ko’ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi”. [10]

Zamonaviy o’zbek she’riyati sahifalari varaqlanganda, Ona mavzusida qalam tebratmagan ijodkor yo’q hisob. Ona haqida go’zal she’ru dostonlar bitilgan. Ularda umumbashariy va milliy jihatlar o’zining yorqin ifodasini topgan. Ayni choqda bunday she’rlar kompozitsion jihatdan rang-barang, badiiy tili boy. Shu bois bunday she’rlarni, avvalo, mazmun-mohiyatiga ko’ra quyidagicha tasniflash mumkin: 1.

Ona mavzusidagi she’rlarda umumbashariy jihatlarining aks etishi.

Ona mavzusidagi she’rlarda o’zbek onasiga xos fazilatlar tarannumi: Ona shu qadar ulug’ va qudratli zotki, u ko’zga ko’rinmas ulkan kuch bilan, mehr-muhabbat bilan faqat farzandilarni, yaqinlarini emas, balki butun boshli insoniyatni bag’riga bosib, dardiga darmon bo’la oladi. Ona hamisha o’zida beqiyos kuch qudrat topa oladigan noyob qudrat egasi. Jafokash tarix sahifalaridan yaxshi bilamizki, onalar eng qiyin va og’ir davrlarda ham, qatag’on va qahatchilik yillarida ham metin irodali va mehribon, jasoratli va samimiy, dovyurak va mehnatkash bo’lib, avvalo, jonidan ham aziz farzandlarini, tug’ilib o’sgan Vatanini asrab qolish uchun hayotini fido qilishdan ham aslo qaytmaganlar.

Ona mehrining poyonsizligi, hayotbaxsh muhabbatining qudrati umuminsoniy qadriyatdir. Onaning bolalarga, farzandlarga muhabbati shunchaki oddiy muhabbat emas, balki tom ma'nodagi fidoiy muhabbatdir. Ona farzandlari uchun har qanday mushkulotni bo'yniga olishga, hamisha farzandlari uchun balogardon bo'lishga, hatto shirin jonidan ham kechishga tayyor.

Onaning fidoiyligi, jafokashligi, farzandi uchun suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib yashashi kabi insonni bezovchi fazilatlar yorqin lavhalarda o'z ifodasini topgan. Onada vijdon tuyg'usi g'oyatda o'tkir. U halol, pok ayolgina emas, ayni chog'da to'g'ri va adolatli hamdir. Shu jihatlarda onaning umumbashariy qadriyat sifatidagi fazilatlari ko'rinib turadi.

Onada vijdon tuyg'usi g'oyatda o'tkir. U halol, pok ayolgina emas, ayni chog'da to'g'ri va adolatli hamdir. Hayotda har xil voqealar bo'ladi. Ona ham ba'zan adashishi, o'zgalarga ozor etkazib qo'yishi, hatto o'zi istamagan holda birovga tuhmat qilishi mumkin. Bunday hollarda Ona xatosini tuzatmaguncha, biror yo'l bilan gunohini yuvmaguncha tinib tinchimaydi, ruhiy iztiroblar iskanjasida qiynaladi.

Ona insonga, uning yaxshiligiga, ma'naviy barkamolligiga astoydil ishonadi va bu ishonch uning olam bilan, odamlar bilan munosabatini zimdan boshqarib turadi. Ona o'zgalarning xatti-harakatini baholaganda, yaxshi-yomonligini aniqlaganda sodda, lekin salmoqli mezonlarga tayanadi.

S.Sayyidning ona haqidagi she'rida dunyo onalariga xos sabr va bardoshli bo'lish fazilati ulug'langan:

Ona, to'plab chiqsa – bardoshlaringiz,
Shuncha yillar to'kkan ko'z yoshlaringiz,
Yeru osmon selu yomg'ir, do'l bo'lardi.

Bir vohani ko'mardi suv,
Bir vohani g'arq etguvchi kul bo'lardi(195).

Shoir bunda mubolag'ali tasvirdan samarali foydalanadi. Onaning sabru bardoshi kuchli. Uning farzandi uchun to'kkan, turmush qiyinchiliklari yo'lida chekkan jafolari bemisl. Shuning uchun shoir ko'z yoshlar "bir vohani ko'madigan suv, bir vohani g'arq qiluvchi ko'l" bo'lardi.

Ajinlaringizni o'ylasam agar,
Bir biriga ulab, boylasam agar –
Surxondan to Toshkentgacha,
Toshkentdan to Surxonga qadar,
Sog'inch to'la, armon to'la yo'l bo'lardi.

Onaning yuzidagi chiziqlar – ajinlarni yillar yuziga solgan. U chiziqlarda farzandi uchun chekkan mashaqqatlari namoyon. U chiziqlarda beshik quchoqlab chiqqan uzun kechalar aks etadi. Bunda ham shoir mubolag'ali tasvirga keng o'rin beradi. Sababi, ona yuzidan chiziqlar ulansa, "Surxondan Toshkentgacha, Toshkentdan Surxongacha" yo'llar bunyodga keladi.

Yo'ldosh Eshbekning "Ona duosi" she'ri ham umumbashariy mazmunga ega. Sababi, ona duosi farzandni hamisha yomonliklardan, yomon ko'zlardan asraydi:

Safar qilsang, oq yo'l, bolam, omon yur,
Razildan qoch va oqillar tomon yur.
Ukalaring sog'intirmay kelib tur,
Hech bo'lmasa ikki enlik xat bit, bolam. (174)

Bu o'rinda ona uzoq yo'lga otlangan bolasini duo qilyapti: uning hamisha omon bo'lishini, razillardan uzoqda yurishini, oqillarga yaqin bo'lishini uqtiryapti.

Alla onalarning umumbashariy qo'shig'i. Demak, u umumbashariy qadriyat hamdir. Shuning uchun taniqli adib O'.Hoshimov onalarning bu muqaddas qo'shig'i qudrati yuksakligini nazarda tutib, u qaysi tilda kuylanmasin, farzandga bir xil ta'sir kuchiga ega ekanligini "Dunyoning ishlari" qissasida ifodalab beradi. Haqiqatan, onalar tomonidan kuylanadigan alla farzandga bo'lgan cheksiz mehrni o'zida ifoda etadi.

O.Matjonning "Haqqush qichqirig'i" poemasi "Alla" deb nomlangan afsona mavjud. Unda o'zga yurtga kelin bo'lib ketayotgan Roziyaga onasi alla aytmasligini iltimos qiladi. Roziya ketma-ket ikki o'g'il ko'radi. Roziya onasining o'tinchini yodida saqlab, biror marta go'daklariga alla aytmaydi. Ikki o'g'il ham ko'p yashamaydi. U uchinchi o'g'liga xo'jayinining "dahshatli hayqirig'i tufayli" alla aytadi. Shundan so'ng bola orom olib uxlab qoladi va sekin-asta tuzala boshlaydi. Roziya endi har kun alla aytadi. Alla ohanglari orqali yaqinlari: ota-onasi, ukalari, dugonalarini eslab, ularni sog'inganini his etadi, qishlog'i manzaralari ko'z o'ngiga keladi. Bora-bora bu sog'inch ulkan bir dardga aylanadi. Yurtiga boray desa, zamon notinch, Gurlan va u yashayotgan mamlakat orasida qattiq janglar ketmoqda edi.[11]

Xulosa.Haqiqatdan, asarda tasvir etilgan voqea nihoyatda ta'sirchan. Xo'sh, nega ona qizidan alla kuylamasligini so'radi. Afsonadagi badiiy lavhalar bu savolga javob beradi. Zero, alla inson qalbiga Vatan degan muqaddas tuyg'uni singdiradi. Chunki Vatan deganda, avvalo, tug'ilib o'sgan yurt gavdalanadi. Unda esa ota-ona, aka-ukalar, yaqin insonlar istiqomat qilishadi. Ona aslida "uzoq yurtda bolam sog'inchda o'rtanmasin" deb, qizidan alla kuylamasligini iltimos qilgan bo'ladi.

Ko'rinadiki, onalarga xos mehrining poyonsizligi, hayotbaxsh muhabbatining qudrati, sabr va bardoshli bo'lish, fidoiylilik, jafokashlik kabi fazilatlar umumbashariy mazmun kasb etgan. O'zbek she'riyatida onalarga bag'ishlangan she'r va poemalarda shu jihatlar o'zining yorqin ifodasini topgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Dujsenbaev O. O'tkir Hoshimov asarlarida xarakter dramtizmi: Adabiyotshunoslik // Til va adabiyot ta'limi, 2007, #3. – B.23-27.
2. Dujsenbaev O. O'tkir Hoshimov ijodida Ona obrazi. NDA. – Toshkent, 2011. –B.24.

3. Oripov A. Munojot. Saylanma. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992, –432 b.
4. Oripov A. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. 1-jild. –T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. –B. 371-389.
5. Oripov A. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. –b.
6. Oripov A. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. Uchinchi jild. Tarjimalar. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – 384 b.
7. Sayyid Sirojiddin. Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni. –Toshkent: “Sharq”, 2005. –208 b.
8. Quronov D., Mamajonov Z. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademiya nashr, 2010. –398 b.
9. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. –Toshkent: Sharq, 2012. –272 b.
10. Hoshimov O'. Ayol / Oq kamalak. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1984. – B. 122.
11. Hojiev O. Mushfiq onajon. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. –304.
12. Roza Khabibullaeva Muhammadayubovna. (2020). INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE MOTHER IN ENGLISH AND UZBEK POETRY. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1(4), 160-164. Retrieved from <http://www.summusjournals.uz/index.php/ijdiie/article/view/331>
13. Khabibullaeva, R. M. (2020). Analysis of pastiche in the novel “The lightning thief” by Rick Riordan. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 958-961.
14. Bakhronova, M. A. (2020). Representation of disease names in the literature. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 141-144.
15. Kabilova F.T, Turaeva K.T, & Zaripova R. I. (2021). Analysis Of The Protagonists Of The Novel Of The “Days Gone By”. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 03(02), 203-209. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue02-33>
16. Файзуллоев О. М. ОБ ОСОБЕННОСТЯХ ИНТЕРПРЕТАЦИИ УЗБЕКСКИХ СКАЗОК //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 12. – С. 212-215.

17. Fayzullayev M.B, Fayzulloyev O.M, & Saidova M.M. (2021). Images of animals in the Legends of Haji Nasretdin. Middle European Scientific Bulletin, 10(1). <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.10.328>